



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 74 sahifa,
4-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q.M - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. - falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. - falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. - falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A - Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N.A. - Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, bilogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor

Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics

Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI | 6 |
| Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 12 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 17 |
| Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI | 25 |
| Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI | 29 |
| Botirova Dilafro'z Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI | 35 |
| Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI | 38 |
| Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI | 42 |
| Abdumatalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 45 |
| Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi | |



PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo'rareva Sohibjamol Norqobilovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Umumiy psixologiya kafedrasи
professori, psixologiya fanlari
doktori

sohibjamolj@mail.ru



Annotatsiya. Maqolada zamonaviy pedagog obrazining o'ziga xos qirralari, uning kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyoji, innovatsiyalarga ochiqligi, ijodiy izlanishlarga moyilligi hamda kasbiy faoliyatda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy fazilatlarni uyg'unlashtira olishi muhim omillar sifatida tahlil etiladi. Bugungi tezkor o'zgaruvchan jamiyat sharoitida pedagog imijining bunday rivojlanishi zamonaviy pedagogik faoliyatning mexanizmlari va xususiyatlarini chuqr o'rganishni taqozo etadi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy pedagog shaxsiga xos sifatlar, ayniqsa, o'qituvchi va talaba o'tasidagi o'zaro munosabatlar kontekstida o'rjanilgan. Pedagog shaxsining individual psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jihatlar uning ta'lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagog, imagologiya, shaxsiy sifatlar, o'z sohasining ustasi, adolat, yetakchilik, keng qamrovli bilim, talaba.

Abstract. This article analyzes the distinctive image of the modern pedagogue, highlighting their need for professional preparation, openness to innovation and creativity, and the ability to harmoniously integrate modern economic and professional competencies into their work. In the context of a rapidly evolving society, the development of such an image necessitates an in-depth examination of the mechanisms and characteristics of contemporary pedagogical activity. Particular attention is given to the personal traits of the pedagogue as reflected in their interactions with students. The study emphasizes the significance of individual psychological features as essential factors determining a teacher's effectiveness in the educational environment.

Key words: modern pedagogue, imagology, personality traits, master of one's craft, justice, leadership, comprehensive knowledge, student.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности имиджа современного педагога, его потребность в профессиональной подготовке, склонность к инновациям и творческому поиску, а также способность успешно интегрировать современные экономические и профессиональные качества в своей деятельности. В условиях стремительно развивающегося современного общества подобное развитие образованиетребует углубленного анализа механизмов особенностей педагогической деятельности. Особое внимание уделяется качествам личности педагога, проявляющимся во взаимоотношениях с учащимися. Индивидуально-психологические характеристики учителя рассматриваются как значимые факторы, определяющие его профессиональную эффективность в образовательной среде.

Ключевые слова: современный педагог, имагология, личностные качества, мастер своего дела, справедливость, лидерство, обширные знания, ученик.

KIRISH



Zamonaviy pedagog imijini tahlil qilishda bir qator yo'nalishlar bo'yicha yoritishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, zamonaviy pedagog imijida ijtimoiy munosabatlarning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Imijologiya nuqtai nazaridan o'qituvchi imiji siyosiy yetakchilar va rahbar timsollari bilan taqqoslanadi.

U hamjamiyatning yetakchi shaxslari singari doim ko'zga tashlanib turadi, jamoat joylarida taniladi va kundalik faoliyatida ko'plab muhim masalalarni hal qiladi. Yuqoridaqilardan tashqari, pedagog talabalar guruhlarini boshqaradi va ularning tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari bilan bir qatorda talabalarning pedagog shaxsiy fazilatlariga bildirgan munosabatlari ham katta rol o'ynaydi.

Shu sababli, oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchilarning yillik o'quv faoliyatini monitoring qilish jarayonida talabalarni jalg etish orqali ancha salmoqli natijalar olinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor-o'qituvchilar imiji – bu ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, ijtimoiy mavqeini, pedagogik faoliyatdagagi obrazini o'zida jamlagan murakkab psixologik-ijtimoiy fenomen. Bu tushuncha nafaqat ularning o'quvchilar, hamkasblar va jamiyat oldidagi qiyofasini ifodalaydi, balki kasbiy faoliyat samaradorligini ham belgilovchi omil hisoblanadi.

Nazariy nuqtai nazardan, professor-o'qituvchilar imiji shaxsnинг o'ziga xosligi, yetukligi va pedagogik mahoratini aks ettiradi. Ijtimoiy psixologiya sohasida ushbu mavzu bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Goffman (1959) o'zining "Impression Management" nazariyasida insonning ijtimoiy munosabatlarda o'z qiyofasini boshqarish mexanizmini tahlil qilgan.

Xorijiy olimlar orasida professor imiji haqidagi ishlar ko'p. Erving Goffman (1959) – ijtimoiy psixologiyada o'zini namoyon qilish va imiji boshqarilishi nazariyasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Tajfel va Turner (1979) tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi ham professor va o'qituvchilar guruhidagi shaxsiy imijining ijtimoiy kontekstda shakllanishini o'rganadi.

O'zbek olimlaridan A. Islomova (2020) o'z maqolasida professor-o'qituvchilar imijining ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilgan. Uning fikricha, professor imiji pedagogik faoliyatdagagi samaradorlik va talabalar bilan muloqotning asosiy omildir. Shuningdek, N. Karimov (2018) professor va o'qituvchilarning kasbiy imijining shakllanishi va rivojlanishiga oid tadqiqotlar olib borgan.

Professor-o'qituvchilar imiji nafaqat kasbiy qobiliyatlarni, balki shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan murakkab fenomen hisoblanadi. Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lif sifatini yaxshilash uchun muhimdir.

TAHLIL VA METODLAR

Biz o'z tadqiqotimizda ham zamonaviy pedagog imijida gavdalanuvchi o'qituvchi shaxsiga xos sifatlarni tadqiq qilishda talabalarni jalg etdik. Mazkur holatni baholashda "Shaxslilik sifatlarini baholash metodikasi"dan foydalanildi. Metodikaning tatbiqida 17 ta shaxslilik sifati insonning kundalik faoliyatida namoyon bo'lishiga ko'ra 10 balli tizim bo'yicha baholanadi. Talabalardan 17 ta sifatning pedagog shaxsida namoyon bo'lish darajasiga qarab baholash so'raldi. Agar sifat eng quyi darajada namoyon bo'lsa — 1 ball, eng yuqori darajada kamol topgan holatda esa — 10 ball bilan baholanishi belgilandi. Shaxslilik sifatlarining darajasiga ko'ra 1 balldan 10 ballgacha baholash ko'zda tutilgan.

Talabalar pedagogning shaxslilik sifatlarini baholagandan so'ng ularning umumiyligi aks ettiruvchi jadvallari shakllantirildi. Quyida amalga oshirilgan izlanish natijalari tahlili berilgan.

Empirik ko'rsatkichlar pedagog imijini tavsiflovchi shaxslilik sifatlarini talabalarning umumiyligi, ta'lif bosqichlari bo'yicha ajratilgan holda talqin etish imkoniyatini berdi.

Dastlabki tahlil sinaluvchilarning umumiyligi ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirildi. Natijalarning tahliliga ko'ra, talabalarning umumiyligi baholariga asoslanib, zamonaviy pedagog imijida quyidagi shaxslilik sifatlari ustuvor ekani aniqlandi.

Talabalarning zamonaviy pedagog imijidagi shaxslilik sifatlarning namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra, ularning barchasi 10 ballik tizim bo'yicha bir xil oraliqdagi miqdorni aks ettirganligi sababli statistik jihatdan aniqlik va differensatsiyani ta'minlash uchun ranjirovka usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Jadvalda keltirilgan holatga ko'ra, pedagog imijini tavsiflovchi sifatlarning tafovutlanishiga erishildi.

Natijalar tahliliga ko'ra, pedagog shaxsiga xos xususiyatlarning tafsilotiga ko'ra, "o'z sohasining ustasi"

mezoni (6,80 ball va 1-rang) eng yuqori o'rinni egalladi. Talabalarning fikricha, "adolatlilik" va "intizomlilik" (6,67 ball va 2-rang) bir xil darajada baholangan.

Pedagogning shaxslilik sifatlarining bunday tus olganligi o'rtachadan yuqori ballar bilan chegaralangan bo'lsa-da, zamonaviy pedagog timsoli yuqorida sanab o'tilgan sifatlar bo'yicha ijobjiy e'tirof etilmoqda.

Talabalarning umumiyligi ko'satkichlari asosida pedagoglardagi shaxslilik sifatlar bo'yicha korrelyatsiyasi aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsientiga ko'ra, zamonaviy pedagog imijini tavsiflovchi sifatlar orasida korrelyatsion bog'liqlik tafsiloti ball ko'rsatkichlari bir xil pog'onadan joy olgan bo'lsa-da, ammo ularning munosabatlari orasidagi aloqadorlik yetarli koeffitsientga ega bo'lmadi. Empirik ko'rsatkichlarga ko'ra, "o'z sohasining ustasi" sifati vazminlik ($r=0,284$; $r\leq 0,01$) va "bejirim kiyinadigan" ($r=0,309$; $r\leq 0,01$) sifatlari bilan korrelyatsion bog'liqlikni aks ettirdi. Bu holat zamonaviy pedagoglardagi o'zaro bog'liq sifatlar kasbiy faoliyatda barqarorlikka erishmasdan yuqori natijalarga erisha olmasligi, shuningdek, doimo saranjom, bejirim tutishga intilmasdan bunga erishib bo'lmashagini anglatadi(1-jadval).

1-jadval

Zamonaviy pedagog imijida namoyon bo'luvchi shaxslilik xususiyatlari (N=536)

| № | Sifatlar | X | Σ | Ranjirovka |
|----------|-------------------------------------|----------|----------|-------------------|
| 1 | O'z sohasining ustasi | 6,80 | 2,25 | 1 |
| 2 | Adolatlilik | 6,67 | 2,03 | 2 |
| 3 | Talabalar muammolarini tushunadigan | 6,62 | 2,21 | 5 |
| 4 | Xayrixoh | 6,37 | 2,39 | 10 |
| 5 | Talabchan | 6,57 | 2,28 | 5 |
| 6 | Hazil-mutoyiba hissiga ega | 6,33 | 2,02 | 11 |
| 7 | Kengqamrovli bilimga ega | 6,65 | 2,06 | 3 |
| 8 | Xushchaqchaq | 6,43 | 2,25 | 9 |
| 9 | Xushmuomala | 6,62 | 2,34 | 5 |
| 10 | Murabbiy | 6,54 | 2,18 | 4 |
| 11 | Yetakchi | 6,63 | 2,29 | 4 |
| 12 | Intizomli | 6,67 | 2,13 | 2 |
| 13 | Vazmin | 6,58 | 2,12 | 6 |
| 14 | Xushmuomala | 6,51 | 2,11 | 7 |
| 15 | Notiq | 6,51 | 2,24 | 7 |
| 16 | Insonparvar | 6,62 | 2,06 | 5 |
| 17 | Bejirim kiyinadigan | 6,48 | 2,09 | 8 |

Talabalarning bahosiga ko'ra, zamonaviy pedagog "hazil-mutoyiba hissiga ega" sifati bo'yicha ko'rsatkichlar quyisi darajaga ega bo'ldi (6,33 ball va 11-rang).

Shuningdek, zamonaviy pedagogning "adolatlilik" uning "talabalar muammolarini tushunishi" bilan o'zaro bog'liq ($r=0,327$; $r\leq 0,01$) hamda "talabchanlik" ($r=0,258$; $r\leq 0,05$) va "intizomlilik" ($r=0,258$; $r\leq 0,05$) bo'lmasa, bu sifatlarga erisha olmaslikdan dalolat beradi.

Zamonaviy pedagogda xayrihohlikning ortishi uning talabalarga nisbatan talabchanligini ham shakkllantirishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,423$; $r\leq 0,01$). Pedagogning xayrixohligi talabalarga fikrlarni bayon etishda erkin, pand-nasihatli, ularning maslagiga mos fikrlarni bildirishi orqali ham namoyon bo'ladi ($r=0,297$; $r\leq 0,01$).

Pedagogning keng qamrovli bilimga egaligi esa murabbiylik ($r=0,228$; $r\leq 0,05$) va "bejirim kiyinadigan" ($r=0,288$; $r\leq 0,01$) inson sifatida faoliyat olib borishiga turtki beradi. Keng qamrovli bilimga egalik pedagogni faqat mutaxassis emas, balki estetik va etika jihatdan komil inson timsolida shakllanishiga xizmat qiladi.



Xushchaqchaqlik va quvnoqlik inson salomatligi hamda pozitiv hayotiy muhit uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotdagi empirik ko'rsatkichlar esa xushchaqchaqlik nafaqat salomatlik, balki intizomli bo'lish uchun ham imkoniyat yaratishini ko'rsatmoqda ($r=0,220$; $r\leq0,05$).

Oldingi korrelyatsion bog'liqliknii ifodalagan holat singari, navbatdagi sifatlarda ham xushchaqchaqlik — shaxslararo munosabatlarning ijobjiy va sintonik (bir qator xususiyatlar uyg'unligidagi) muloqot uslubi uchun zarur ekanligini tasdiqlamoqda ($r=0,237$; $r\leq0,05$).

| Sifatlar | Pedagog shaxslilik sifatlarining tartibi | | | | | | | | | | | | | | | |
|-------------------------------------|--|------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|--------|--------|--------|--------|-------|-------|--------|--------|
| | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 5 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | | | |
| O'z sohasining ustasi | ,140 | ,089 | 0,067 | 0,012 | 0,091 | ,203 | 0,029 | 0,037 | 0,030 | ,171 | ,284** | ,049 | ,052 | ,018 | ,025 | ,309** |
| Adolatlilik | ,327* | * | ,131 | ,258* | ,095 | ,237* | ,258* | ,185 | ,325** | ,199 | ,418** | ,297** | ,002 | ,192 | ,041 | ,225* |
| Talabalar muammolarini tushunadigan | | ,148 | ,099 | 0,181 | ,042 | ,030 | ,173 | ,091 | 0,095 | ,148 | ,177 | ,008 | ,050 | ,127 | ,109 | |
| Xayrixoh | | | ,423** | ,023 | 0,022 | ,162 | ,085 | ,101 | ,176 | ,056 | ,297** | ,097 | 0,048 | 0,033 | 0,034 | |
| Talabchan | | | | ,062 | ,122 | ,140 | ,036 | ,120 | 0,004 | ,040 | ,194 | 0,037 | ,030 | 0,042 | ,067 | |
| Hazil-mutoyiba hissiga ega | | | | | ,066 | ,128 | ,176 | ,044 | ,038 | ,016 | ,024 | ,061 | 0,014 | 0,124 | 0,096 | |
| Kengqamrovli bilimga ega | | | | | | ,228* | ,063 | ,050 | ,082 | ,265* | ,141 | ,122 | ,200 | 0,013 | ,288** | |
| Xushchaqchaq | | | | | | | ,059 | ,220* | ,078 | ,068 | ,116 | 0,059 | ,171 | ,021 | 0,029 | |
| Xushmuomala | | | | | | | | ,237* | 0,143 | ,095 | ,196 | ,081 | ,196 | ,167 | ,074 | |
| Murabbiy | | | | | | | | | ,161 | ,138 | ,260* | ,114 | ,039 | ,151 | ,009 | |
| Yetakchi | | | | | | | | | | ,387** | ,147 | ,218* | 0,060 | ,171 | 0,043 | |
| Intizomli | | | | | | | | | | | ,271* | ,344** | ,052 | ,105 | ,111 | |
| Vazmin | | | | | | | | | | | | ,097 | ,135 | ,044 | 0,013 | |
| Xushmuomala | | | | | | | | | | | | | ,244* | ,116 | ,173 | |
| Notiq | | | | | | | | | | | | | | ,159 | ,297** | |
| Insonparvar | | | | | | | | | | | | | | | ,005 | |
| Bejirim kiyinadigan | | | | | | | | | | | | | | | | |

etadi. Empirik ko'rsatkichlar va zamonaviy pedagog imijida etakchilik bilan insonparvarlik muhim shaxs fazilatlarini kamol topishining psixologik qonuniyatiga ham asoslanishini ko'rsatmoqda.

Shaxsning yoshligidanoq o'z ishiga mas'uliyatlari va yuklatilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaruvchi, amalga oshirayotgan faoliyatiga e'tiborsiz bo'lmasliklari zarurligi uqtiriladi. Mazkur talabning pedagog



faoliyatiga yuklanishi yanada yuqoriroq ko'rsatkichlarni talab etadi. Pedagog ta'lism jarayonida talabalarni intizomga chaqirar ekan, bunga uning o'zi javob bera olmasligi ayanchli munosabatga sabab bo'ladi. Tadqiqotda pedagoglarning empirik ko'rsatkichlari o'z-o'zidan namoyon bo'lmadi. Bu pedagog shaxsining ajralmas sifatiligini ko'rsatmoqda. Talabalarning munosabatiga ko'ra pedagoglarda intizomning yuqori kamol topishi notiqlik ($r=0,271$ $r\leq 0,01$) va insonparvarlik ($r=0,344$ $r\leq 0,01$) sifatlarini kamol toptirar ekan.

Shuningdek, pedagoglarning nazarida zamonaviy pedagogda namoyon bo'layotgan sifatlardan biri xushmuomalalikdir. Pedagog jamiyatda shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qilar ekan xushmuomalaliksiz hech bir natijaga erisha olmaydi. Xushmuomala pedagog shogirdlari va atrofdagilar bilan munosabatda til va tafakkurning o'zaro bog'iqliqiga erishadi, ya'ni notiqlik bilan yondashadi ($r=0,244$ $r\leq 0,05$).

Tadqiqotda o'ziga xos kuzatilgan holat notiq pedagogda insonparvarlik ustuvor sifatga aylanar ekan ($r=0,297$ $r\leq 0,01$). Bundan ko'rindaniki, notiq pedagog so'zdan mohirona foydalanadi, talabalarning ehtiyojlariiga mos axborotlar bilan ta'minlaydi va ularning qalbidan o'rinni oladi.

Yuqoridagi tahviliy materiallar talabalarning zamonaviy pedagog imijini tafsiflagan shaxsiga xos empirik ko'rsatkichlar haqida so'z borgan bo'lsa, quyida bu holatda talabalarning ta'lism yo'nalishiga ko'ra talqin etishga murojaat qilinadi.

Empirik ko'rsatkichlar talabalarning ta'lism bosqichlariga ajratilgan holda tahlil etishni ham taqozo etadi. Ushbu o'rinda talabalarning turli darajadagi tajribasi, pedagog to'g'risidagi tasavvurlari orqali ularning imijini baholashga harakat qilindi. 3-jadvalda ta'lism bosqichlariga ko'ra pedagog imijini tafsiflovchi sifatlarning tahviliga e'tibor qaratiladi.

Talabalarning pedagog imijiga bergen baholarini ta'lism bosqichlariga ko'ra tafovutlanishi statistik mezonlari bo'yicha ta'minlangan. Buning uchun barcha bosqich talabalarining pedagog imijiga bildirgan munosabatlari pedagog sifatlarida bir biridan tafovutlanuvchi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarda zamonaviy pedagog imijini ifodalovchi sifatlar talabalarning ta'lism bosqichlari bo'yicha etarlicha differensatsiyaga egaligi statistik jihatdan aniqlanganligi kuzatiladi. Shuning uchun ularning har birini taqdim etishni lozim topmadik, ammo ahamiyatlari ko'rsatkichlarni, yuqori ahamiyatlari sifatlarni taqdim etishni lozim topdik (3-jadval) ў

Birinchi bosqich talabalarida pedagog imijini ifodalovchi sifatlar quyidagi ahamiyatlilik ko'rinishiga ega bo'ldi:

- Xayrihohlik (5,85 ball);
- Muvozanatlilik (5,83 ball)
- Adolatlilik (5,81 ball);
- Bejirim kiyangan (5,71 ball);
- Insonparvarlik (5,60 ball)

Birinchi bosqich talabalarining nazarida oliy ta'limga dastlabki yilidayoq ular tomonidan pedagoglarga xos sifatlarni ifodalay olganlar.

Ikkinci bosqich talabalarining zamonaviy pedagog timsoliga xos sifatlari quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi:

- O'z sohasining ustasi (6,78 ball);
- Keng qamrovli bilimga ega (6,36 ball);
- Xushmuomala (6,46 ball);
- Xayrixoh (6,31 ball);

Talabalar muammosini tushunadigan (6,27 ball). Empirik ko'rsatkichlarga ko'ra ikkinchi bosqich talabalarining zamonaviy pedagog imijiga xos sifatlarning eng yuqori beshtasiga nazar solinganda dastlabki ikkitasi kasbiy kompetensiyani ifodalovchi, uchtasi esa shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlardan iborat.

3-jadval
Talabalar nigohida zamonaviy pedagog imijini tafsiflovchi shaxslilik sifatlari (N=536)

| Sifatlari | 1-kurs (N=160) | | 2-kurs (N=135) | | 3-kurs (N=128) | | 4-kurs (N=113) | |
|-----------------------|----------------|----------|----------------|----------|----------------|----------|----------------|----------|
| | X | σ | X | σ | X | σ | X | σ |
| O'z sohasining ustasi | 4,96 | 2,36 | 6,78 | 2,57 | 7,18 | 1,81 | 7,23 | 1,76 |
| Styudent t-mezoni | -2,043* | | -3,974*** | | -6,713*** | | -4,995*** | |
| Adolatlilik | 5,81 | 2,31 | 5,72 | 2,22 | 7,38 | 1,53 | 7,18 | 1,81 |



| | | | | | | | | |
|-------------------------------------|-----------|------|-----------|------|-----------|------|-----------|------|
| Styudent t-mezoni | -1,484 | | -3,520*** | | -4,049*** | | -3,159*** | |
| Talabalar muammolarini tushunadigan | 5,62 | 2,36 | 6,27 | 2,63 | 7,58 | 2,10 | 7,38 | 1,53 |
| Styudent t-mezoni | -1,676 | | -3,246*** | | -5,287*** | | -2,778** | |
| Xayrixoh | 5,85 | 2,74 | 6,31 | 2,56 | 7,05 | 1,66 | 7,58 | 2,10 |
| Styudent t-mezoni | -1,001 | | -2,186 | | -4,637 | | -2,547 | |
| Talabchan | 5,53 | 2,56 | 6,01 | 2,55 | 7,38 | 1,70 | 7,05 | 1,66 |
| Styudent t-mezoni | -1,139 | | -3,932*** | | -4,246*** | | -4,303*** | |
| Hazil-mutoyiba hissiga ega | 5,16 | 2,18 | 5,82 | 2,22 | 7,07 | 1,68 | 7,38 | 1,70 |
| Styudent t-mezoni | -4,54*** | | -0,937 | | -7,116*** | | -1,516 | |
| Keng qamrovli bilimga ega | 5,28 | 2,13 | 6,36 | 2,44 | 7,20 | 1,73 | 7,07 | 1,68 |
| Styudent t-mezoni | -1,571 | | -4,049*** | | -6,247*** | | -4,181*** | |
| Xushchaqchaq | 5,18 | 2,65 | 5,97 | 2,40 | 7,42 | 2,04 | 7,20 | 1,73 |
| Styudent t-mezoni | -1,843 | | -4,102*** | | -5,591*** | | -3,500*** | |
| Kirishimli | 5,50 | 2,64 | 5,87 | 2,64 | 7,40 | 1,57 | 7,42 | 2,04 |
| Styudent t-mezoni | -0,987 | | -4,596*** | | -4,920*** | | -5,048*** | |
| Murabbiy | 5,02 | 2,36 | 6,20 | 2,24 | 7,61 | 1,94 | 7,40 | 1,57 |
| Styudent t-mezoni | -3,380*** | | -4,054*** | | -8,045*** | | -3,022*** | |
| Yetakchi | 5,70 | 2,72 | 6,08 | 2,65 | 7,40 | 1,87 | 7,61 | 1,94 |
| Styudent t-mezoni | -0,913 | | -3,547*** | | -5,113*** | | -3,184*** | |
| Intizomli | 5,73 | 2,44 | 6,31 | 2,57 | 7,37 | 1,72 | 7,40 | 1,87 |
| Styudent t-mezoni | -1,440 | | -3,012*** | | -4,839*** | | -2,423* | |
| Vazmin | 5,83 | 2,55 | 5,92 | 2,46 | 7,22 | 1,88 | 7,37 | 1,72 |
| Styudent t-mezoni | -0,205 | | -3,699*** | | -4,702*** | | -3,827** | |
| Xushmuomala | 5,26 | 2,35 | 6,46 | 2,38 | 7,40 | 1,71 | 7,22 | 1,88 |
| Styudent t-mezoni | -3,110*** | | -3,011*** | | -6,354*** | | -1,713 | |
| Notiq | 5,30 | 2,29 | 5,83 | 2,51 | 7,31 | 2,09 | 7,40 | 1,71 |
| Styudent t-mezoni | -1,426 | | -4,172*** | | -6,583*** | | -4,268*** | |
| Insonparvar | 5,63 | 2,32 | 6,15 | 2,08 | 6,92 | 1,76 | 7,31 | 2,09 |
| Styudent t-mezoni | -1,463 | | -2,495* | | -4,813*** | | -3,801*** | |
| Bejirim kiyinadigan | 5,712 | 2,57 | 5,96 | 2,29 | 6,96 | 1,48 | 6,92 | 1,76 |
| Styudent t-mezoni | -0,627 | | -3,584*** | | -3,698*** | | -3,584*** | |

Izoh: *r≤0,05; **r≤0,01; ***r≤0,001.

Uchinchi bosqich talabalarida esa pedagoglar imijini tavsiflovchi sifatlarda o'ziga munosabat aks ettirganlar. Ularning pedagog imijiga xos shaxslilik sifatlarini baholaganda quyidagicha munosabat kuzatildi:

Murabbiy (7,61 ball);

Talabalar muammolarini tushunadigan (7,58 ball);

Xushchaqchaq (7,42 ball);

Xushmuomala (7,40);

Yetakchi (7,40 ball). Uchinchi bosqich talabalarining pedagog timsoli uchun bergen baholari oldingi ikki bosqichga nisbatan ustuvorroq ko'rinish olganligi empirik ko'rsatkichlarda o'z aksini topmoqda. Ushbu sifatlar esa pedagoglarning ma'nnaviy-axloqiy jihatlariga aloqador xususiyatlarni aks ettirmoqda.

To'rtinchi bosqich talabalarida esa pedagog uchun zarur sifatlari bir munkha o'ziga xoslagini aks ettirgan:

Yetakchilik (7,61 ball);

Xayrixohlik (7,58 ball);

Xushmuomalalik (7,42 ball);



Murabbiy (7,40 ball), intizomli (7,40 ball), notiq (7,40 ball);

Talabalar muammolarini tushunadigan (7,38 ball), hazil-mutoyiba hissiga ega (7,38 ball). To'rtinchi bosqich talabalari o'tgan o'quv yillari davomida ustozlarining ham kasbiy, ham shaxsiy sifatlari to'g'risida tasavvurga egadirlar. To'rtinchi bosqich talabalari tomonidan pedagoglar uchun xos boshqaruvchilik, ma'naviy-axloqiy va kommunikativ xususiyatlariga urg'u berilgan.

Talabalar pedagog imijiga xos sifatlarni baholaganliklarining o'rtacha qiymati har doim ham xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq ifodalamaydi. Buning uchun albatta statistikaning muhim usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Tadqiqotda foydalanilgan statistika usullaridagi an'anaga sodiq qolgan holda pedagog imijiga doir talabalarning empirik ko'rsatkichlari ustida korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Korrelyatsiya tahlili talabalarning ta'limga bosqichlariga muvofiq amalga oshirildi. Korrelyatsiya tahlili esa har bir bosqich bo'yicha pedagog imijiga xos sifatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishida ichki qonuniyatlar mayjudligi aniqlandi. Bular xususida quyida to'xtalib o'tamiz.

Birinchi bosqich talabalari pedagogda xushchaqchaqlik sifati ortib ketsa so'zsiz intizomlilikni susayishiga ($r=-0,226$; $p\leq0,05$) sabab bo'ladi degan xulosani bermoqdalar.

Kirishimlilik sifati hisobidan pedagoglar bejirim kiyinshiga urg'u berar ekanlar ($r=-0,226$; $p\leq0,05$).

Ularning nuqtai nazaricha pedagogda murabbiylitka xos sifatlar yaqqol aks etganda insonparvarlik ustuvor ($r=-0,226$; $p\leq0,05$) shaxslilik sifatiga aylanar ekan. O'z navbatida pedagogda notiqlik ham insonparvarlik sifatini o'sishiga turtki berar ekan ($r=-0,232$; $p\leq0,05$). Tahliliy materiallar birinchi bosqich talabalarning oliv ta'limga faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan dastlabki munosabatlaridagi taassurotlari natijasidir. Oliy ta'limga muassasalarida pedagoglarning talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishlariga alohida urg'u berilishi pedagoglar shaxsiy ish rejalarining ajralmas qismi hisoblanib, o'zbek etnosida tarbiya va ma'naviy kamolot masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi sababli pedagoglarning murabbiylitka xos sifatiga ega bo'lishi empirik ko'rsatkichlarda ham o'z isbotini topdi. Murabbiylitka xos sifatining o'sib borishi ularda sermulohazalik, aytildigan gapning muhimligini baholay oladigan, sugestiv qobiliyatga egalikni ta'minlagan ($r=0,260$; $r\leq0,05$).

Pedagog talabalar bilan individual va guruhiy ishlar ekan har ikkala holatda ham shaxslarning o'z yo'nalishiga yo'naltirishida etakchiligi uning xushmuomalaligi hisobidan ($r=0,387$ $r\leq0,01$) ta'minlangandir. Pedagogning etakchilik sifati muloqotga kirishayotganlari bilan insonparvarlik ($r=0,218$ $r\leq0,05$) fazilati bilan o'zaro aloqadorlikda kamol topishini taqazo etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy pedagoglardagi bir-biri bilan bog'liq sifatlar kasbiy faoliyatda barqarorlikka erishmasdan yuqori natijalarga erishishni qiyinlashtiradi. Demak, biz avvalo ta'limga maqsadini amalga oshiruvchi pedagog va talaba shaxsining shakllanishida o'quv jarayonlari hamda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning muhim rol o'ynashini e'tirof etishimiz lozim. Pedagog o'z shaxsiy namunasi, tashqi qiyofasi va xatti-harakatlari, ichki ma'naviy fazilatlari orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ideal pedagog bilan tanishuvni ko'p hollarda hayrat uyg'otadi va bu holat o'quvchilarning shu yo'lni tanlashlariga olib keladi.

O'qituvchi pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida ularni qabul qiladi, o'ylab chiqadi, o'quv materialini ifodalash va qadriyatli-mazmunli aksentlashtirish uchun o'ziga mos mantiqiy izchillikni shakllantiradi. Pedagog va talaba o'rtasidagi dars jarayonidagi o'zaro ta'sir faqatgina ular bir-birini tushunganida va hurmat qilganidagina, o'z navbatida bir-biriga ishonch bildirganlaridagina yuzaga chiqadi.

Pedagog va talabaning darsdagi faqat bunday o'zaro ta'siri — ya'ni, bir-birini tushunish, ishonch va o'zaro hurmat asosida qurilgan munosabat — ta'limga faqatgina ular bir-birini tushunganida va hurmat bilimlar talabaning shaxsiy yutug'iga aylanadi. O'rtadagi o'zaro ishonch va samimiy munosabat esa talabaning jamiyatga moslashuvi, ya'ni ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jurayeva S.N. "In the society in forming the image of teacher the role of social psychological effects." Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue), ISSN 2319-4979, Special Issue on Emerging Techniques in Interdisciplinary Sciences, October 2021, pp. 1841–1848.
2. Jo'raeva S.N. "Cultural and historical prerequisites for the development of the innovative potential of the subject of creativity." Psychology and Education, 2021, pp. 2870–2873.
3. Джураева С.Н. "Структурные компоненты профессионального имиджа педагога." Школа Будущего, Уфа, 2018, №4, pp. 104–108.
4. Jurayeva S.N. "Interpretation of image in modern scientific research." Международный научно-образовательный



- электронный журнал «Образование и наука в XXI веке», Выпуск №8, 2020.
- 5. Goffman, E. (1959). *The Presentation of Self in Everyday Life*. New York: Doubleday.
 - 6. Tajfel, H., & Turner, J.C. (1979). "An integrative theory of intergroup conflict." In W.G. Austin & S. Worchel (Eds.), *The Social Psychology of Intergroup Relations*. Brooks/Cole.
 - 7. Islomova, A. (2020). "Ijtimoiy-psixologik omillar va professor imiji." *Toshkent Psixologiya jurnalı*, 5(3), 45–52.
 - 8. Karimov, N. (2018). "Kasbiy imij shakllanishi." *Oliy ta'limda pedagogik tadqiqotlar*, 2(1), 112–120.

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LII

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'llimi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.